

## **Mnemonika texnikasi va uning xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati**

***Qodirova Sharqiya Baxtiyorovna-***

*Samarqand davlat chet tillari*

*instituti talabasi.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda mnemonika texnikasidan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Dars mashg'ulotlarida samarali natijaga erishish va so'z boyligini oshirishga yordam beradigan mnemonik texnikalar haqida yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Mnemonika, mnemonik texnikalar, assotsiatsiya, qiziqarli mashg'ulot, samaradorlik*

***Annotation:*** *This article talks about the importance of using mnemonic techniques in learning foreign languages. Mnemonic techniques that help to achieve effective results and increase vocabulary will be covered during the lessons.*

***Key words:*** *Mnemonics, mnemonic techniques, association, interesting lesson, efficiency.*

Hozirgi kunda chet tili o'rganuvchilari soni tobora ortib bormoqda va o'rganishga bo'lgan talab kuchaymoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu borada «Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim»-deb aytib o'tganlar. Ma'lumki, har bir chet tilini mukammal o'rganish uchun katta so'z boyligi kerak. Til o'rganuvchilarning aksariyati so'z boyligini oshirishga ya'ni yangi chet tili so'zlarini yod olishga qiynalishadi va ko'p vaqt sarflashadi. Yod olingan ko'plab so'zlar esa xotirada yaxshi saqlanmaydi va vaqt o'tgan sari yodimizdan chiqib

ketadi. Bu holat esa o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi va chet tiliga bo'lgan qiziqishning so'nishiga olib keladi. Bu holatni bartaraf etish uchun bir qancha metodlar va zamonaviy o'rganish usullari mavjud. Bulardan biri bu mnemonika texnikasi hisoblanadi. Ushbu texnika yordamida til o'rganishni osonlashtirish mumkin. Dastlab, mnemonika texnikasi va uni til o'rganishdagi ahamiyati haqida tanishib o'tamiz.

**Mnemonika**- o'xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar to'plamidir. Bunda yangi noma'lum bo'lgan ma'lumotlar va tushunchalar inson ongida allaqachon ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va yangi ma'lumotni eslab qolish osonlashadi.

Mnemonika yodlab qolish uchun foydalaniladigan texnika hisoblanadi. Mnemonika yordamida yod olinishi qiyin bo'lgan ma'lumotlarni oson eslab qolish mumkin va u xotira hajmini kengaytiradi. Mnemonikaning asosiy g'oyasi murakkab ma'lumotlarni miyamizda oson yod olish yo'lini topishga asoslangan. Miyamiz evolutsion tarzda rasm, rang, struktura, ovozlarni, turli hissiyotlarni eslab qolishga asoslangan. Manbalarda mnemonikani juda tor ravishda ma'nosi bo'lmagan va organizatsiya qilinmagan axborotga ma'no berib, organizatsiya qilib yod olish deb aytiladi. Shuningdek, o'qilayotgan materialga qo'shimcha ma'no qo'shishga mnemonika deyiladi. Natijada biz yod olayotgan ma'lumot ma'noli va mantiqiy tus oladi va xotiramizda uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi. Umuman olganda, mexanik ravishda yod olishga qaraganda ma'nosini tushunib yod olish yaxshi va samaralidir. Shuni ham aytib o'tish darkorki, **Gerald Miller** tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida mnemonika mexanizmlarini ishlatgan talabalarning test natijalarida 77 foizga o'sish kuzatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu texnikadan foydalanish ijobiy natija beradi. Yangi chet tili so'zlarini yod olishga yordam beradigan mnemonik texnikalarga quyidagilar misol bo'ladi: 1) Fonetik assotsiatsiya usuli ya'ni so'zni talaffuzi o'xshash so'z bilan bog'lab yod olish. Masalan, yell – dod -voy va dodlash degan ma'noni beradi. Qattiq esgan yel dodlaganga o'xshaydi va shu bilan bog'lab eslab qolish

mumkin . 2) Makon usulida esa inson uchun tanish bo'lgan biror bir joy, misol uchun uy bo'lishi mumkin, tanlab olinadi. O'sha joydagi narsalarga o'rganayotgan so'zlar joylashtiriladi. Masalan, uyning xonasidagi yotoqqa sleep -uxlamoq so'zini joylashtirsak , yotoqda uxlab yotgan insonni tasavvur qilish kerak .Yoki xonadagi dars stoliga read – o'qimoq so'zini joylashtirilganda, dars solida kitob o'qiyotgan odamni hayolan tasavvur qilish mumkin . Bu kabi mnemonik usullarda yangi ma'lumotlarni biz uchun tanish bo'lgan eski ma'lumotlar bilan bog'lay olish muhim o'rin tutadi . Bundan tashqari, o'rganayotgan yangi so'zni tasavvur qilib eslab qolish yaxshi samara beradi . Masalan , red-qizil , rose - atirgul va biz qizil atirgullarni tasavvur qilishimiz kerak . Tasavvur qiling kimdir sizga juda ham chiroyli qizil atirgullar sovg'a qildi . Bu g'alati tuyulishi mumkin . Lekin inson xotirasi qiziq va noodatiy narsa voqealarni tezroq eslab qoladi . Inson kecha qanday ovqat yeganini eslolmasligi mumkin ammo yoshligida bo'lib o'tgan qiziq va ajoyib xotiralarni esida saqlab qoladi .Bu insonga xos bo'lgan jarayon hisoblanadi. Mnemonika texnikasidan foydalanib har kuni oz -ozdan so'z yodlansa, albatta samarali natija beradi va so'zlarni uzoq muddatga eslab qolish imkoni paydo bo'ladi. Bu esa xorijiy tillarni o'rganuvchilar uchun qulaylik yaratadi va chet tilini o'rganishni rivojlantiradi .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattbayev .So'z yodlash sirlari. Istiqlol Nuri. 2015.
2. Mukammal xotira Shohruh Mirzo Rahmonov . Akademnashr. 2020.
3. Aziza Pardayeva. Modern methods of teaching english in higher education. Development of pedagogical technologies in modern sciences .2023.
4. The mnemonic Imagination remembering as creative practice. Emily Keightly, Michail Pickering.
5. Use your memory. Tony Buzan. 2019.
6. Zubaydova Nilufar. The importance of teaching vocabulary. Bridge to science:research works. 2019.